

IQTISODIY LIBERALIZM: IQTISODIY RIVOJLANISHDA SIYOSATNING O'RNINI, DAVLATNING ROLI, MUAMMOLARI VA MAZMUNI

Usmonov Murodjon Do'smurot o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrası assistenti

e-mail: usmonov.murodbek95@gmail.com

Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

E-mail: tolmasjonqurbonov06@gmail.com ORCID ID: 0009-0009-7503-7872

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiy liberalizm tushunchasi, uning nazariy asoslari hamda iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida iqtisodiy liberalizm sharoitida davlatning iqtisodiy siyosatdagi roli, vazifalari va funksional chegaralari aniqlab berilgan. Bozor mexanizmlarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlashda siyosiy va institutsional omillarning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, iqtisodiy erkinlik, raqobat muhiti va xususiy sektor faolligining iqtisodiy o'sishga ta'siri yoritilgan. Maqolada iqtisodiy liberalizmning amaliyotda qo'llanishi jarayonida yuzaga keladigan muammolar, jumladan ijtimoiy tengsizlik, davlat ishtirokining qisqarishi va bozor beqarorligi bilan bog'liq xavf-xatarlar tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar misolida iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonining mazmuni va ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari iqtisodiy liberalizm va davlat iqtisodiy siyosati o'rtasidagi optimal nisbatni shakllantirish barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy liberalizm, davlatning iqtisodiy siyosati, bozor mexanizmlari, iqtisodiy erkinlik, xususiy sektor, raqobat muhiti, makroiqtisodiy barqarorlik, institutsional islohotlar, davlat aralashuvi, iqtisodiy rivojlanish.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishida iqtisodiy liberalizm g'oyasi muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy liberalizm bozor mexanizmlarining erkin faoliyat yuritishini ta'minlash, xususiy mulk ustuvorligini e'tirof etish hamda davlat aralashuvini minimal darajaga tushirish g'oyalariga asoslanadi. Ushbu yondashuv iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, raqobat muhitini shakllantirish va resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy liberalizm sharoitida davlatning iqtisodiy siyosatdagi o'rnini, vazifalari va javobgarligi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu masala ilmiy jihatdan chuqur tahlil etishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹⁸⁵gi Farmonida Iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor mexanizmlarini keng joriy qilish tamoyillariga asoslangan islohotlarning yangi bosqichida davlatning iqtisodiyotdagi rolini kamaytirish va xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish bo‘yicha navbatdagi ishlarning natijadorligini oshirish bugungi kunda iqtisodiyotni boshqarishning aniq, shaffof va natijaga yo‘naltirilgan mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Q.S.Maxmudov “Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy siyosatining amal qilishi”¹⁸⁶ nomli maqolasida rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning shakllanishi, asosiy yo‘nalishlari va samarali amalga oshirilishi tajribasi tahlil qilinadi. AQSh, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda iqtisodiy siyosat orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, innovatsion rivojlanish, bandlikni oshirish va ijtimoiy farovonlikni qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratiladi. Maqolada fiskal va monetar siyosatning muvofiqlashtirilganligi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, raqobatbardosh sanoat siyosati, eksportni rag‘batlantirish, hamda pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish strategiyalari keltirilgan.

Guliston davlat universiteti professorlari tomonidan yozilgan “Iqtisodiy siyosatga kirish”¹⁸⁷ nomli darslikda davlat iqtisodiy siyosatining zarurligi, mazmuni, maqsadi, vazifalari va usullari, uni amalga oshirish tamoyillari hamda asosiy yo‘nalishlariga va mexanizmlariga oid mavzular yoritilgan. Unda davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishga qaratilgan siyosatning shakllari, vosita va usullarining qo‘llanishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etishni yanada chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan davlat iqtisodiy siyosatining amalga oshirilayotganligi natijasida O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘shish ta‘minlanganligi ishonarli dalillar asosida ko‘rsatib berilgan.

Mamatov Akbar Baxtiyorovich “O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining rivojlanishi va uning barqaror iqtisodiy o‘shishga ta‘sir”¹⁸⁸ nomli maqolada O‘zbekistonning iqtisodiy siyosati, uning rivojlanish bosqichlari hamda iqtisodiyotga ta‘sir ko‘rsatayotgan asosiy omillar o‘rganilgan. Iqtisodiy siyosatning fiskal, pul-kredit, sanoat, hududiy va ekologik

¹⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.03.2020 yildagi PF-5975-son <https://lex.uz/docs/-4776669>

¹⁸⁶ Q.S.Maxmudov “Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy siyosatining amal qilishi” Журнал Journal of marketing, business and management 2025 <https://cyberleninka.ru/article/n/rivojlangan-mamlakatlarda-iqtisodiy-siyosatining-amal-qilishi>

¹⁸⁷ Guliston davlat universiteti professorlari tomonidan yozilgan “Iqtisodiy siyosatga kirish” https://www.renessans-edu.uz/files/books/2024-12-04-12-22-48_13b092f8215fbcfc349fa0f87b82ad17.pdf

¹⁸⁸ Mamatov Akbar Baxtiyorovich “O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining rivojlanishi va uning barqaror iqtisodiy o‘shishga ta‘sir” Published December 21, 2024 | Version v1 <https://zenodo.org/records/14541351>

yo'nalishlari tahlil qilinib, ularning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, mamlakatning yaqin yillarda YAIM o'sish sur'atlari, iqtisodiy diversifikatsiya, raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishiga oid chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda iqtisodiy samaradorlikni oshirish va raqobatbardosh sanoat tarmoqlarini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus metodlaridan keng foydalanildi. Xususan, iqtisodiy liberalizmning nazariy asoslarini ochib berishda mantiqiy tahlil va sintez metodlari qo'llanildi. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli va siyosatning ahamiyatini baholashda tizimli yondashuv usuli asosiy metod sifatida tanlandi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish orqali taqqoshlama va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya usullari yordamida iqtisodiy liberalizmning ijobiy va salbiy jihatlari umumlashtirildi hamda ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri xulosalandi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tahlilida rasmiy hujjatlar va konseptual dasturlar mazmunini o'rganishga asoslangan hujjatli tahlil metodidan foydalanildi. Bundan tashqari, iqtisodiy jarayonlar va siyosiy qarorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda funksional tahlil usuli qo'llanildi. Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlashga hamda xulosalarning mantiqiy va izchil shakllanishiga xizmat qildi.

Tahlil natijalari

Iqtisodiy liberalizmning asosiy mazmuni iqtisodiy faoliyat erkinligi, bozor kuchlariga ishonch va davlatning cheklangan rolga tayanadi. Ushbu konsepsiya klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan ilgari surilgan bo'lib, unda talab va taklif qonuni, erkin raqobat va narx mexanizmi iqtisodiy muvozanatni ta'minlovchi asosiy omillar sifatida qaraladi. Iqtisodiy liberalizm sharoitida bozor subyektlari o'z manfaatlarini asosida mustaqil qaror qabul qiladi va bu jarayon umumiy iqtisodiy farovonlikka olib keladi. Mazkur yondashuv iqtisodiy resurslarning optimal taqsimlanishini ta'minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy rivojlanish bevosita iqtisodiy siyosatning yo'nalishi va sifatiga bog'liqdir. Iqtisodiy liberalizm sharoitida siyosatning asosiy vazifasi bozor mexanizmlarining uzluksiz va samarali ishlashi uchun qulay institutsional muhit yaratishdan iborat. Bunda mulk huquqlarining kafolatlanishi, shartnomalar ijrosining ta'minlanishi va iqtisodiy erkinliklarni himoyalash muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan olib boriladigan iqtisodiy siyosat makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani nazorat qilish va moliyaviy tizimning

ishonchliligini mustahkamlashga qaratiladi. Shu orqali iqtisodiy o‘sish uchun barqaror asos yaratiladi.

Iqtisodiy liberalizm davlat rolini butunlay inkor etmaydi, balki uni ma’lum chegaralarda belgilaydi. Davlatning asosiy vazifasi – bozorning normal faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan huquqiy va institutsional shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Shu jumladan, davlat monopoliyalashuvning oldini olish, raqobatni rivojlantirish va ijtimoiy adolatni ta’minlash choralari amalga oshiradi. Bundan tashqari, davlat strategik tarmoqlarda nazorat funksiyasini saqlab qolishi hamda ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish orqali aholining zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu jihatlar iqtisodiy liberalizmni ijtimoiy barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda respublika iqtisodiyotida davlatning roli va ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishga bozor prinsiplari va mexanizmlarini keng joriy qilish, shuningdek aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida quyidagi maqsadlar belgilangan:


- makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash asosida iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish va iqtisodiyotning real sektori holati, tashqi bozorlari konyunkturasi hamda global va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari bilan bog‘liq holda iqtisodiyot asosiy sohalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish;

- xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va “xufyona” iqtisodiyot ulushini qisqartirish uchun qulay sharoit yaratish, jumladan iqtisodiy jarayonlarda davlat ishtirokini qisqartirish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, moliyaviy va ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish qulayligini ta’minlash, shuningdek kichik sanoat zonalari salohiyatidan samarali foydalanish orqali bunga erishish;

- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va diversifikatsiya qilishni, shuningdek hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg‘unligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish asosida mamlakat sanoatini rivojlantirish strategiyalarini (modellarini) ishlab chiqish;

Iqtisodiy liberalizmning amaliyotdagi qo‘llanilishi bir qator muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Bozor mexanizmlariga haddan tashqari ishonch ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga, daromadlar tafovutining oshishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shuningdek,

davlat aralashuvining cheklanishi ayrim strategik sohalarda muhim investitsiyalarning yetishmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Moliyaviy bozorlarning tartibga solinmasligi iqtisodiy beqarorlik va inqirozlar xavfini kuchaytiradi. Shu bois iqtisodiy liberalizmni qo‘llashda muvozanatli va ehtiyotkor siyosat yuritish zarurati yuzaga keladi.



1-rasm. Liberalizmning asosiy prinsiplari¹⁸⁹

“Mukammal liberal jamiyat bu har kim uchun erkin harakat qilish imkoniyatini beruvchi, muhim siyosiy ma’lumotlar bilan erkin almashuvchi, davlat va din hokimiyatini cheklovchi, qonun ustivorligini ta’minlovchi, shaxsiy mulk va erkin tadbirkorlik mavjud jamiyatdir. Liberalizm jamiyat, davlat, hayot tarzi uchun asos bo‘lgan ko‘pgina eski dunyoqarashlarni bekor qildi. Jumladan, hukmdorlarning ilohiy huquqlari va dinning yagona bilim manbai kabi holatlardan voz kechildi. Liberalizm fundamental prinsiplari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: har kim uchun yashash, shaxsiy erkinlik va mulk egaligi huquqi; qonun oldida hammaning tengligi; erkin bozor iqtisodiyoti; erkin va rost saylovda tanlanuvchi hukumat; davlat boshqaruvining oydinligi. Shu bilan birga hukumatning asosiy funktsiyasi ushbu holatlarni ta’minlashdan iboratdir. Zamonaviy ko‘rinishda liberalizm kamchilikning huquqlarini himoya qiluvchi, plyuralizm va demokratik boshqaruvga asoslangan ochiq jamiyatni ko‘zda tutadi. Ba’zi zamonaviy nuqtai nazarlarda davlat boshqaruvini kengaytirish mumkin deb qaraladi. Buning sababi fuqarolarning o‘z imkoniyatlarida tengligini, ma’lumot olishi va foyda ko‘rishidagi farqni qisqartirishni ta’minlashdan iboratdir. Bunday qarash tarafdorlari davlat o‘z majburiyatlarini bajarishida barchaning

¹⁸⁹ Muallif ishlanmasi

muvaffaqiyatini ta’minlashi lozimligini ko’rsatishadi. Jumladan ishsizlarga yordam berish, boshpanasizlar uchun joy berish va tekin tibbiy xizmat ko’rsatish davlat majburiyatlaridan biridir”¹⁹⁰.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy liberalizm iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim nazariy asos va amaliy yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu yondashuv bozor erkinligini ta’minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, biroq davlatning muvofiqlashtiruvchi rolini inkor etmaydi. Davlat iqtisodiy siyosat orqali bozor mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlashi, ijtimoiy muvozanatni saqlashi va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirishi lozim. Iqtisodiy liberalizmning muammolari va cheklovlarini hisobga olgan holda, davlat va bozor o‘rtasidagi optimal nisbatni topish barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi.

Iqtisodiy liberalizm iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib, u bozor mexanizmlarining erkin faoliyat yuritishini rag‘batlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv sharoitida davlatning iqtisodiy siyosatdagi roli butunlay cheklanmaydi, balki huquqiy, institutsional va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan muvofiqlashtiruvchi funksiyalar bilan belgilanadi.

Iqtisodiy rivojlanish jarayonida siyosatning ahamiyati bozor ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratish, mulk huquqlarini himoyalash va raqobat muhitini shakllantirish orqali namoyon bo‘ladi.

Davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat iqtisodiy erkinlik va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qilishi lozim, chunki haddan tashqari liberallashtirish ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy liberalizmning amaliyotda qo‘llanilishi davlat aralashuvining optimal darajasini belgilash zaruratini yuzaga keltiradi, bu esa strategik tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiyl sektor faolligini oshirish va bozor mexanizmlarini keng joriy etishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon iqtisodiy o‘sish uchun muhim shart-sharoitlarni yaratmoqda.

Iqtisodiy liberalizm sharoitida davlatning ijtimoiy vazifalari, jumladan aholining zaif qatlamlarini himoyalash, bandlikni ta’minlash va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

¹⁹⁰ Wikipedia <https://uz.wikipedia.org/wiki/Liberalizm>

Umuman olganda, iqtisodiy liberalizm va davlat iqtisodiy siyosati o‘rtasidagi optimal uyg‘unlikni ta’minlash barqaror, inklyuziv va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga erishishning asosiy omili hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi takliflar keltirilgan:

Birinchidan, iqtisodiy liberalizm sharoitida bozor mexanizmlarining samarali faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadida davlat tomonidan huquqiy va institutsional muhitni yanada takomillashtirish, xususan mulk huquqlarining ishonchli himoyasini kuchaytirish;

Ikkinchidan, iqtisodiyot tarmoqlarida raqobat muhitini rivojlantirish va monopoliyalashuv holatlarining oldini olish orqali xususiy sektor faolligini oshirish;

Uchinchidan, davlatning iqtisodiy siyosatini makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan aniq va shaffof mexanizmlar asosida olib borish hamda iqtisodiy erkinliklar bilan muvozanatlash;

to‘rtinchidan, iqtisodiy liberalizatsiya jarayonida ijtimoiy tengsizlik va daromadlar tafovutini yumshatishga qaratilgan samarali ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish;

beshinchidan, iqtisodiy liberalizmning salbiy oqibatlarini minimallashtirish maqsadida strategik tarmoqlarda davlat ishtirokini maqbul darajada saqlab qolish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.03.2020 yildagi PF-5975-son <https://lex.uz/docs/-4776669>
2. Q.S.Maxmudov “Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy siyosatining amal qilishi” Журнал Journal of marketing, business and management 2025 <https://cyberleninka.ru/article/n/rivojlangan-mamlakatlarda-iqtisodiy-siyosatining-amal-qilishi>
3. Guliston davlat universiteti professorlari tomonidan yozilgan “Iqtisodiy siyosatga kirish” https://www.renessans-edu.uz/files/books/2024-12-04-12-22-48_13b092f8215fbcfc349fa0f87b82ad17.pdf
4. Mamatov Akbar Baxtiyorovich “O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining rivojlanishi va uning barqaror iqtisodiy o‘sishga ta’siri” Published December 21, 2024 | Version v1 <https://zenodo.org/records/14541351>
5. Sherboyev Komiljon Rahmonberdiyevich “Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari” Журнал Journal of marketing, business and management 2024 <https://cyberleninka.ru/article/n/iqtisodiyotni-davlat-tomonidan-tartibga-solish-mexanizmlari>

6. Mirshod Tolibov “Ijtimoiy siyosatning nazariy asoslari va iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni: tarixiy rivojlanish, asosiy yo‘nalishlar va zamonaviy tamoyillar” Modern Science and Research, 4(1), 895–904. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/64010>

7. <https://www.scribd.com/document/749132737/Davlatlarning-iqtisodiyotdagi-o-rni>

8. Wikipedia <https://uz.wikipedia.org/wiki/Liberalizm>

9. Wikipedia <https://uz.wikipedia.org/wiki/Liberalizatsiya>